Jonrid Abdullaxonov (1929-2015)



Jonrid Abdullaxonov (1929-2015)

Jonrid Abdullaxonov 1929 yili Namanganda tug‘ilgan. Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakulteti, Moskva Oliy Adabiyot kursini tugatgan.

Uning «Maktabdoshlarim» (1952) nomli birinchi she’riy to‘plami, «Hikoyalar» (1956), «To‘yga kelinglar» (1960), «Tong yorishgan sohilda» (1962) kabi hikoyalar to‘plamlari, «Gulchehra» (1962) qissasi, «Yo‘l» (1964) romani chop etilgan. Shundan so‘ng muallifning ketma-ket «Borsa kelmas» (I — II kitob, 1978—1980), «Xonadon», «Suiqasd» (1991) kabi romanlari chop etiladi.

«Borsa-kelmas» romanida Orol muammosi, ona tabiat muhofazasi masalalari o‘z ifodasini topgan. «Suiqasd» romanida esa mehnatkashlarning haqiga xiyonat qilgan, jamiyatni ma’naviy-iqtisodiy inqirozga olib kelgan yulg‘ich, poraxo‘r va ko‘zbo‘yamachilarning aft-basharasi fosh etilgan.

2023-09-13 17:27:50